

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BOSHQARUVINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЕЙ ДОШКОЛЬНОГО
ОБРАЗОВАНИЯ

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION
MANAGEMENT

O'rinova Feruzaxon O'ljayevna
maktabgacha ta'lim kafedراسi dotsenti, p.f.n
Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi,
magistrant
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: *Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilot rahbari, balki pedagog xodimlar va tarbiyachilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma va malakalariga, ularning faoliyati natijalariga ham bog'liqligi va aloqadorligi maktabgacha ta'lim boshqaruvi boshqaruvi o'ziga xos tizim ekanligini ifodalaydi. Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *menejment, produktiv fikrlash, qaror qabul qilish, rejashtitish, funksional vazifalar, ijodkorlik, ilmiy madaniyat, assotsiatsiya.*

Аннотация: *Сегодня организация, управление и совершенствование деятельности дошкольной образовательной организации, обеспечение эффективности педагогических процессов зависит не только от заинтересованности, знаний, умений и квалификации руководителей дошкольной образовательной организации, но и от результатов их деятельности. Актуальность управления дошкольным образованием означает, что это уникальная система. В статье изложены методические рекомендации по особенностям управления организацией дошкольного образования.*

Ключевые слова: *управление, продуктивное мышление, принятие решений, планирование, функциональные задачи, творчество, научная культура, объединение.*

Annotation: *Today, the organization, management and improvement of activities of preschool educational organization, ensuring the effectiveness of pedagogical processes depends not only on the interest, knowledge, skills and qualifications of preschool educational organization leaders, but also on the results of their activities. The unity and relevance of preschool education management means that it is a unique system. The article describes*

methodological recommendations on the specific features of preschool education organization management.

Key words: *management, productive thinking, decision-making, planning, functional tasks, creativity, scientific culture, association.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan davlat dasturlari, hukumat qarorlari, ular uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mazkur sohadagi boshqaruv muammolarining yechimini topish va bartaraf etish, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishni, ya'ni boshqaruvning avtoretar uslubdan voz kechgan holda, bugungi kun talablariga mos keladigan, demokratik uslubga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan boshqaruvchida kreativlik sifatlari shakllangan tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va bu sohani yanada rivojlantirish bo'yicha ken ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti MTTni boshqarish organlari tomonidan oliy ma'lumotga va 3 yildan kam bo'lmagan pedagogik ish stajiga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish, tarbiyalash bo'yicha ishni mehnat jamoasi, maktabgacha ta'lim muassasasi kengashining faollari ishtirokida ma'muriyat amalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlari kadrlarning kasb mahoratini, umumiy ta'lim mahoratini, umumiy ta'lim va madaniy darajasini muntazam o'stirib borishiga g'amho'rlik qiladi: xodimlar malakasini hisobga olgan xolda va maktabgacha ta'lim muassasasi manfaatlaridan kelib chiqib, ularni ratsional va o'z vaqtida joydan-joyga ko'chirib turilishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasasida kadrlar zahirasi shakllantirilib, ular bilan doimiy ish olib boriladi.

Rahbar – ma'naviy, siyosiy, huquqiy ahloqiy yetuklik-saviya, ong ma'rifatchilik, madaniyatlilik, xodimlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, halollik, vijdonlilik, tanqidga chidamli bo'lish, mehnatsevarlik istiqbolni oldindan ko'ra olish kabi xususiyatlar mavjud bo'lishi kerak.

Boshqaruvda rahbarlar tomonidan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi vazifalar - rejalashtirish;

- amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini tanlash;
- qaror qabul qilish va uni amaliyotga tatbiq etish;
- vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra mutaxassislarni tanlash;
- belgilangan vazifalarni to'g'ri taqsimlash;
- ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish ;
- moddiy-texnik bilan ta'minlash;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida interaktiv metodlarni qo'llash;

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash nafaqat maktabgacha ta'lim tashkilot rahbari, balki pedagog xodimlar va tarbiyachilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma va malakalariga, ularning faoliyati natijalariga ham bog'liqligi va aloqadorligi maktabgacha ta'lim boshqaruvi boshqaruvi o'ziga xos tizim ekanligini ifodalaydi.

Har qanday boshqariladigan ob'ekt kabi maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati ham va boshqaruvchi subyektlar tomonidan boshqariladi va muvofiqlashtirib boriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati tashkilotchilari bo'lgan subyektlar (MTT rahbari, pedagog xodimlar va tarbiyachilar) o'rtasidagi aloqa tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi va tarbiyaviy munosabatlar jarayonidagi o'zaro munosabatlar ularning faoliyatini ifodalaydi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish, boshqarish va belgilangan maqsadlarga erishishda rahbarlar, pedagog xodimlar va tarbiyachilarning lavozimi yo'nalishidagi funksional vazifalarini o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ta'minlash asosida samaradorlikka erishish uchun hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etishning zarurati Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri subyektlar faoliyatini tashkil etishda boshqaruv metodlaridan mazmun-mohiyatiga va vazifasiga ko'ra to'g'ri foydalanishning ahamiyatligi bo'lib, Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatini tashkil etish va boshqarishga, ya'ni Maktabgacha ta'lim tashkilotining funksional vazifasi va undagi ta'lim-tarbiyaviy muhitning o'ziga xos jihatlarga mos keladigan metodlarni qo'llash zarur hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini takomillashtirishda pedagog xodimlar va tarbiyachilar faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilariga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berish, ularning faoliyatini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotida moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash xodimlarga moddiy yordam ko'rsatish, ularni rag'batlantirish, mukofotlash yoki jazolash (jarima solish)da iqtisodiy metodlardan foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti boshqaruvida pedagog xodimlar, tarbiyachilar hamda tarbiyalanuvchilar faoliyatini muvofiqlashtirishda qaror, buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish

o'ziga xos ahamiyat kasb etib, tashkiliy-ma'muriy metodlardan foydalanish zaruriyatini belgilaydi. Chunki, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi faoliyatini takomillashtirishda qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash va ularning bajarilishini ta'minlash jarayoni o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi jarayon hisoblanib, subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirishda tashkiliy-ma'muriy metodlar orqali ta'sir ko'rsatishning zarurati Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sanaladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi boshqaruvi jarayonida mavjud muammolarni hal etish, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim samaradorligini oshirish yo'nalishida qabul qilingan qaror va buyruqlarning mazmun-mohiyati jamoa a'zolarining qiziqishi, manfaatlari, ko'nikma va malakalari, bilimi, qobiliyati hamda imkoniyatlariga, shuningdek, mavjud huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos kelishi zarur bo'lib, bu ko'p jihatdan rahbarlarning boshqaruv yo'nalishidagi bilimi, ko'nikma va malakasi, kasbiy tajribalariga bog'liq bo'ladi.

Demak, tashkiliy-ma'muriy metoddan foydalanishda hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish orqali xodimlarda mas'uliyatni, ya'ni ularda o'z vazifalariga nisbatan javobgarlik hissini shakllantirish, Maktabgacha ta'lim tashkilotida mavjud munosabatlarni yaxshilash asosida o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish, ongli intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni zamonaviy talablarga mos ravishda ta'minlashning zarurati MTTda boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida maydonga chiqadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'lim tashkilotida ijodiy-sog'lom muhitni yaratish zaruriyatini belgilaydi, bu o'z navbatida boshqaruvning ijtimoiy-psixologik metodlaridan foydalanish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotida boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlaridan biri umumiy maqsadni belgilash va qarorlar qabul qilish jarayonida pedagog xodimlar, tarbiyachilar va mutaxassislarning erkin ishtirok etishi, mustaqil va erkin harakat qilishi, o'z fikr va tashabbuslarini namoyon qilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, zamonaviy rahbar bu vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagog va boshqa xodimlarning barcha faoliyatlariga tegishli bo'lgan jarayon bo'lib hisoblanadi va rahbar ko'zlangan natijalarga erishishda ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, mazkur jarayon ishtirokchilariga ta'sir ko'rsatish orqali ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Turg'unov S.T. Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat Uzluksiz ta'lim jurnali. – 2006. – № 4.

2. Turg'unov S.T. Zamonaviy maktab direktorining boshqaruv faoliyatida tizimli yondashuv // Xalq ta'limi jurnali. – 2006. – №
3. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – t. 3. – №. 3. – c. 311-315.
4. Urinova F., Azizmatova Z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
5. O'rinova F. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
6. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation.– 2022.– т.1 №. B2. – с. 107-110.
7. Uljayevna O. F. Et al. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktabga tayyorlash tamoyillari //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 654-659.
8. Uljaevna U. F. Et al. Development of creative activity of preschool children in art game as a psychological and pedagogical problem //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 47-51.
9. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature". International conference on Studies in Humanity, Education and Sciences Helsinki, Finland.ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, January 10th 2022
10. Urinova Feruza Uljayevna, Valiyeva Hojirakhon Ilhomjon kizi. Development of intellectual abilities of preschool children. Through developing technologies. Modern journal of social sciences and humanities. Issn: 2795-4846. Vol.4/(2022).
11. Uljaevna U. F. et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern Journal of Social Sciences and Humanities. – 2022. – T. 4. – C. 444-448.
12. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – с. 444-448.
13. Uljayevna O. R. F. Maktabgacha talim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 88-91.